

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYAT VA HUQUQBUZARLIKLARNING SABABLARI VA ULARNING PROFILAKTIKASI

Muzaffarova Maftuna Yusuf qizi

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB JXX

HPB VEMB inspektor-psixolog, kapitan

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga etmaganlar jinoyati va huquqbuzarligi tushunchasi, ularning turlari, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan sharoitlar o'rganilib tahlil etilgan. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi va huquqbuzarligi uchun javobgarlik qo'llash masalalarida qonunda bo'shliq hosil qilib turgan holatlar va ularning amaliyotdagi muammo va echimlari ko'rsatilgan. Bundan tashqari voyaga etmaganlar jinoyatchiligi va huquqbuzarligini oldini olishga hamda javobgarlik qo'llashga doir xorijiy davlatlarning qonunchiligi o'rganilib, ularning tahlili asosida mazkur faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib milliy tizimga tadbiq etish masalalari ko'rilib.

Kalit So'zlar: Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi, voyaga etmaganlar huquqbuzarligi, jinoyat-huquqiy belgilar, kriminologik belgilar.

CRIMINAL-LEGAL AND CRIMINOLOGY ASPECTS OF CRIMES COMMITTED BY WOMEN

Annotation: The concept of women's criminality, their types, the causes of crimes committed by women and the conditions that made them possible are analyzed in this thesis. In the issues of responsibility for women's crimes, the cases created by the law and their practical problems and solutions are shown. In addition, the legislation of foreign countries on the prevention of women's crime and accountability was organized, based on their analysis, suggestions and recommendations were developed to increase the effectiveness of this activity and issues of implementation into the national system were considered.

Key Words: Women's criminality, responsibility, Criminality, Crime, criminal-legal signs, criminological signs.

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ ЖЕНЩИНАМИ

Annotatsiya: В диссертации анализируются понятие женской преступности, их виды, причины совершения преступлений женщинами и условия, которые сделали их возможными. В вопросах ответственности за преступления женщин показаны созданные законом случаи и их практические проблемы и пути решения. Кроме того, было организовано законодательство зарубежных стран по предупреждению

женской преступности и привлечению к ответственности, на основе их анализа разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности этой деятельности и рассмотрены вопросы внедрения в национальную систему.

Ключевые Слова: Женская преступность, ответственность, Преступность, Преступление, уголовно-правовые признаки, криминологические признаки.

KIRISH

Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'zini demokratik, dunyoviy, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida tasdiqlaydi, uning oliy qadriyati inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari hisoblanadi.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar huquqbazarligi va jinoyatchiligining oldini olish, huquqbazarliklar hamda jinoyatlarn barvaqt profilaktika qilish, ularning sabab va omillarini aniqlash bilan shug'ullanadigan subektlarning vakolat hamda vazifalari belgilangan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida ushbu faoliyatning asosiy vazifalari sifatida voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfatlarini himoya qilinishini ta'minlash, voyaga etmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish, voyaga yetmaganlarni huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalg qilish hollarini aniqlash va ularga barham berish vazifasi qo'yilgan.

Respublikamizda so'nggi yillarda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kski ijobiy sifat o'zgarishlariga erishish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va sud-huquq islohotlari amalga oshirilmoqda. Belgilangan yo'naliishlarda boshlangan ulkan ishlarni davom ettirish, yangi pog'onaga ko'tarishda yosh avlodning ushbu yo'naliishlardagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi o'zgarishlar yoshlarga bo'lgan munosabatlarga yanada jiddiy yondashishni taqazo etadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi umumiyl jinoyatchilikning ajralmas qismidir shu bilan birga V.D.Malikov aytganidek "Voyaga yetmaganlarning somotik aqliy va ahloqiy rivojlanish xususiyatlari", shuningdek, ularning ijtimoiy yetukligi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu bizni uni kriminologik o'rganishning mustaqil ob'ekti sifatida o'rganishimizni ta'qozo etadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi va shu bilan birga jinoyatchiligin tahlil qilish, uning oldini olish, umuman jamiyatda mavjud jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 50-60 foiz resividistlar o'zlarining "jinoiy karera"sin voyaga yetmagan, hali o'smirlik vaqtidanoq boshlashadi²⁰. Shuning uchun, qancha erta voyaga yetmaganlar huquqbazarligi va ularning g'ayriijtimoiy

²⁰ Stat.uz

yo'lga qadam qo'yganligini aniqlash, ularning oldini olish bu, davlatning ijtimoiy-huquqiy siyosati istiqbolda samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi masalasiga to'xtalishidan oldin voyaga yetmagan kim? Ular qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, xalqaro va milliy qonunchilikda ularning huquqiy maqomi kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqbazarligi, xususan jinoyatchiligi qanday o'ziga xos xususiyatlar kasb etib borayotganligin bilish ham muhim. Kriminologlar, voyaga yetmaganlar mahkumlarning umumiyligi soni foizidan kelib chiqib, turli xil tibbiy ro'yxatlarda (alkogolizm, giyohvandlik, ruhiy kasalliklar va hokazolar.) turadiganlar o'rtasida barqaror bog'liqlik borligini aniqlashdi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar huquqbazarligi bilan oilaviy munosabatlar o'rtasida yaqin bog'liqlik kuzatilmogda, nizoli muhitda bo'lgan oilalar, ajrashishlar ko'p bo'lgan hududlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, bu kabi xususiyatga ega bo'lмаган hududlarda ushbu ko'rsatkich pastligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotning ustuvor maqsadi voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi ijtimoiy-huquqiy nazorat amaliyotini takomillashtirish, voyaga yetmagan tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga odilona javobgarlikni qo'llash hamda ular tomonidan jinoyatlarni sodir etishini oldini olish yuzasidan profilaktika faoliyatining turli darajalarida uni belgilovchi omillar va shart-sharoitlarga ta'sir ko'rsatish samaradorligini takomillashtirish mohiyatidan kelib chiqadigan muammolar majmuasini o'rganish va ko'rib chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan faoliyat huquqbazarlik sodir etish xavfi ostidagi voyaga yetmagan shaxslarni har tomonlama o'rganish va amaliy yordam ko'rsatishga imkon beradi. 2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"²¹gi qonunning 2-bob 8-moddasiga ko'ra "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- Bolalar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar;
- Ichki ishlar organlari;
- Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim organlari;
- Vasiylik va homiylik organlari;
- Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- Mehnat organlari"²¹, deb belgilangan.

Umumta'lim maktablارida profilaktika ishining vazifalari quyidagilardir:

- Bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish;

²¹ 2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"²¹gi qonun

- Voyaga yetmaganlarning qarovsizligini oldini olish;
- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va singdirish;
- Ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xarakterdagi muammolar va qiyinchiliklarni hal qilishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.

Umumta'lim maktablarida huquqbazarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: umumi (jamoaviy) profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika.

Umumi (jamoaviy) profilaktika - bu o'quvchilarning umumi jamoasiga qaratilgan, huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, o'quvchilarning huquqiy ongini o'stirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir. Umumi profilaktika tadbirlari doirasida har payshanba umumta'lim maktablarida "profilaktika kuni" o'tkazilishi va bu kunda maktab miqiyosida ommaviy tarbiyaviy profilaktik ishlarga o'quvchilarning katta qismi jalb qilinishi belgilangan. Jumladan, "O'quvchilar davomati va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish" davra suhbat, "Internetning salbiy ko'rinishlari-yoshlar tarbiyasiga ta'siri" tadbirlari, "Jinoyatchilikning ildizlari" suhbat, "Yoshlar va qonun" mavzusida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish borasidagi tadbirlar, "Jaholatga qarshi kurash" mavzusida debat, "Bola tarbiyasiz tug'iladimi?" mavzusida suhbat, "Ta'tilni jinoyatlarsiz o'tkazamiz" shiori ostida tadbirlar majmui va boshqa ko'plab tadbirlar shular qatoridandir. Ushbu tadbirlar mahalla faollari, profilaktika inspektorlari, diniy tashkilot vakillari, yoshlar yetakchisi va boshqalar ishtirokida tashkil etiladi. Bu orqali voyaga yetmaganlar ya'ni maktab o'quvchilari ongida har qanday huquqbazarliklarga murosasiz madaniyatni shakllantirish mumkin.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir²².

Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik materiallarni va statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, kuzatish, tizimli yondashuv usullaridan foydalilanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Huquqbazarlik profilaktikasi sohasida shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonunlarga roiya qiladigan voyaga yetmaganlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida fan sifatida o'tiladigan "Huquqshunoslik" darslari o'z orniga ega. O'quvchilarga huquqbazarlik, huquqiy javobgarlik, jazo, jinoyat, huquqbazarlikning oldini olish, huquq va axloq normalari kabi tushunchalar aynan ushbu darslarda yoritilib, mavzuga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bilan mustahkamlanadi. Shuningdek, ta'lim tizimida voyaga yetmaganlar huquqbazarligi

²² https://drive.google.com/file/d/1f3MCJF3DdFLleRoRJzU7mUQiAZCdTh4_/view

profilaktikasi borasida tashkil etilgan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspektor psixolog lavozimlari joriy etilganligi hamda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar sifati yanda rivojlanmoqda. Jamiyatning voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspektor psixologlarga ehtiyoji o'rganilib, ular ishlashi kerak bo'lgan tegishli ish joylarini belgilandi:

- yoshlar bilan ishslash (ta'lim, uni qo'llab-quvvatlash, bo'sh vaqt ni tashkil etish, oilaviy maishiy muammolarini birlashtirish, ularning jinoyat sodir etishlarini oldini olish va boshqalar);
- bolalar uylari va ixtisoslashtirilgan muktab inernatlari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish muassasalarida ta'lim olayotganlar bilan ishslash (ta'lim, uni qo'llab-quvvatlash, ixtisoslashtirilgan muktab inernatlari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish muassasalarida ta'lim olayotganlar oilaviy sharoitlarini o'rganish, ular bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, sog'lom turmush tarziga qaytarish yuzasidan ishlarni tashkil etish va boshqalar);
- kattalar ta'limining shakllarida tahsil oklayotgan moyilligi bor voyaga yetmaganlar bilan ishslash (kasb-hunar ta'limi va ta'lim, korxonalardagi ijtimoiy ishlar, o'z-o'ziga yordam tashkilotidagi voyaga yetmaganlarning sharoitlari, mehnat qilish hamda noqonuniy ish bilan band voyaga yetmaganlarning ushbu ishni qilayotganligi sabablari o'rganish, ota-onalari bilan manzilli ravishda ishlarni tashkil qilish, ularning nazoratsiz va qarovsiz qolishi natijasida jinoyat va huquqbazarlik sodir etishini oldini olish va boshqalar);
- voyaga yetmagan har bir shaxsga hamda ularning oilasiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish (konsultatsiyalar, kundalik muammolarni hal qilishda yordam, aliment bo'yicha muammolar yoki nikohni bekor qilish borasida yuzaga kelayotgan holatlarda jabrlanuvchi bo'lib qolayotgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, hamkor tashkilotlar bilan ushbu muammolarni bartaraf etish).

Yuqorida keltirilgan holatlar o'z vaqtida aniqlanmasa, ular bilan profilaktik chora-tadbirlar o'z vaqtida olib borilmasa, kelgusida voyaga yetmagan shaxslar huquqbazarlik va jinoyatlardan jabrlanishi yoki ularni bevosita o'zi sodir etishi mumkinligi, yoki aksinsa bir qator tashkilot o'z vazifalarini yetarlicha amalga oshirmsa allakimlar ularda mavjud bo'lgan ma'naviy bo'shliqni o'zlarining buzg'unchi g'oyalari bilan to'ldirib ularni jinoyat sodir etishga undashi, jalb etishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jamiyatda voyaga yetmaganlarning viktimlashuvini hamda ularning deviant xulq-atvorini shakllantiruvchi va uni yanada jonlantiruvchi turli xil muammolarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilgan holda bu kabi shaxslarning huquqbazarlikdan jabrlanishi hamda ularning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqbazarliklar umumiy, yakka tartibdagi va

victimologik profilaktikasi faoliyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bilan bog'liq masalalarни ijobiy hal etish ichki ishlar organlari tomonidan aynan voyaga yetmaganlar o'rtasida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar umumiy, yakka tartibdag'i va victimologik profilaktikasi samaradorligiga bog'liq. Bu borada ular bilan ishlovchi hududiy IIO voyaga yetmagan ishlari bilan shug'llanuvchi inspector-psixologlarning vazifasi katta.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stat.uz
2. 2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonun
3. [https://drive.google.com/file/d/1f3MCJF3DdFLIeRoRJzU7mUQiAZCdTh4
/view](https://drive.google.com/file/d/1f3MCJF3DdFLIeRoRJzU7mUQiAZCdTh4/view)
4. O'zbekiston Respublikasining 14.05.2014 yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-sон Qonuni.